Dastlabki ma’lumotlar

# 2024- yilning yanvar - iyun oylarida Qashqadaryo viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi – 16755,8 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 16481,2 mlrd. so‘mni (103,8 %), o‘rmon xo‘jaligi – 253,5 mlrd. so‘mni (103,2 %), baliqchilik xo‘jaligi – 21,1 mlrd. so‘mni (72,0 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Qashqadaryo viloyatining ulushi 9,9 % ni tashkil etdi.




16755,8 — Qashqadaryo viloyati bo‘yicha

01  16481,2 — Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02  253,5 — O‘rmon xo‘jaligi

03  21,1 — Baliqchilik

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2024- yilning yanvar - iyun yakunlariga koʻra, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 103,8 % i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar,103,2 % i - oʻrmon xoʻjaligi, 72,0 % i – baliq xoʻjaligi hissasiga toʻgʻri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi




2024- yilning yanvar- iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Koson (1596,8 mlrd. soʻm), Chiroqchi (1570,1 mlrd. soʻm) Kitob (1417,1 mlrd. soʻm), Qamashi (1324,4 mlrd. soʻm), Yakkabogʻ (1312,8 mlrd. soʻm) , Nishon (1207,0 mlrd. soʻm) Kasbi (1188,6 mlrd. soʻm) va

Qarshi (1125,1 mlrd. so‘m), tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Dehqonobod tumanini (1568,8 mlrd. so‘m) Shahrisabz shahri (133,9 mlrd. so‘m) va Qarshi shahri (157,8 mlrd. so‘m)ni, keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (103,7 %) yuqori o‘sish sur’atlari Qarshi shahri (116,2 %), Nishon (109,8 %), Ko‘kdala (105,9 %), Koson (104,9 %), Mirishkor (104,5 %), Muborak (104,4 %), aksincha viloyat ko‘rsatkichidan past o‘sish sur’atlari G‘uzor (100,4 %), tumanlarida va Shahrisabz shahrida (100,6 %), kuzatildi.

## Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati



# Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2024- yilning yanvar- iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 16280,0 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari - 4995,7 mlrd. so‘mni (103,0 %), chorvachilik mahsulotlari – 11284,3 mlrd. so‘mni (104,1 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



## Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 78,7 % i - dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 18,7 % i - fermer xo‘jaliklariga, 2,6 % i - qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

# Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




2024- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko‘ra yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Nishon tumanida (35,8 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Shahrisabz shahrida (99,2 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qarshi shahrida (14,0 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Shahrisabz shahrida (0,4 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Nishon tumanida (57,0 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Shahrisabz shahrida (0,4 %) qayd etildi.

# Dehqonchilik

2024- yilning yanvar- iyun oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 4995,7 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 30,7 % ni tashkil qildi.

## Don jami

**Hajmi, ming tonna**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 616,2 ming tonna don (2023- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 0,3 % ga ko‘p ) yetishtirildi. Don yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiy hajmidan 12,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha don yetishtirish hajmi, tonna



# Kartoshka

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2024- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 107,3 ming tonna kartoshka (2023- yilning yanvar- iyulga nisbatan 1,7 % ga ko‘p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 90,8 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini

ko‘rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna



# Sabzavotlar

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 170,7 ming tonna sabzavotlar (2023- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 4,5 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 86,4 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna



# Poliz

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi**






2024- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 43,9 ming tonna poliz (2023- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 15,7 % ga ko‘p) yetishtirildi. Poliz yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, poliz yetishtirish umumiy hajmidan 57,6 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha poliz yetishtirish hajmi, tonna



# Mevalar

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2024- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 55,5 ming tonna mevalar (2023- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 3,8 % ga ko‘p ) yetishtirildi. Meva yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, meva yetishtirish umumiy hajmidan 61,9 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha mevalar yetishtirish hajmi, tonna



# Uzum

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2024- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 6,6 ming tonna uzum (2023- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 7,3 % ga ko‘p ) yetishtirildi. Uzum yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, uzum yetishtirish umumiy hajmidan 45,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna



# Chorvachilik



2024- yilning yanvar- iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 11284,3 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 69,3 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2024- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 152,9 ming tonna go‘sht (2023- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 4,4 % ga ko‘p), 590,1 ming tonna sut (3,1 % ga ko‘p), 254,7 mln.dona tuxum (5,1 % ga ko‘p), 171,4 ming dona qora ko‘l teri (2,9 % ga ko‘p ) yetishtirildi va 822,8 tonna baliq (31,9 % ga kam) ovlandi.

## <u>Go‘sht *(tirik vaznda)*</u>

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 152,9 ming tonna go‘sht (2023- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 4,4 % ga ko‘p) yetishtirildi. Go‘sht yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht yetishtirish umumiy hajmidan 96,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha go‘sht *(tirik vaznda)* yetishtirish hajmi, tonna



# Sut

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 590,1 ming tonna sut (2023- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 3,1 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 95,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha sut yetishtirish hajmi, tonna



# Tuxum

**Hajmi, mln.dona**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 254,7 mln. dona tuxum (2023- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 5,1 % ga ko‘p yetishtirildi.Tuxum yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 66,4 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha olingan tuxum hajmi, ming dona



# Baliq

**Hajmi,tonna**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2024- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 822,8 tonna (2023- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 31,9 % ga kam) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 62,9 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2024- yilning yanvar - iyun holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,4 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 92,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 1,3 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 8,7 % i fermer xo‘jaliklariga, 84,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 6,8 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonidan 15,7 % i fermer xo‘jaliklariga, 79,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 5,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 5,4 % i fermer xo‘jaliklariga, 70,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 24,4 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2024- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 718,9 mingtaga yetdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 30,7 ming boshga (1,8 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



2024- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 557,3 mingtaga yetdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni 12,9 ming boshga (2,4 %) ko‘paydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 89,8 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2024- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 4944,1 mingtaga yetdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni - 132,6 mingtaga (2,8 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2024- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 84,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2024- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 36,3 mingtaga yetdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni - 1182 boshga (3,4 %) ko‘paydi.

## Otlar

**Soni, bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar, xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 79,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ta’kidlash lozim.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2024- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 6208,1 mingtaga yetdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni - 251,0 ming boshga (4,2 %) ko‘paydi.

## Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 70,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi

• (75)-221-34-46